

Buxoro davlat universiteti
rektorining 374 - sonli buyrug'iga
2-ilova
2021-yil 7-sentabr

**Buxoro davlat universitetida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha
koordinator to'g'risidagi
NIZOM**

1. Ushbu Buxoro davlat universitetida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha koordinator to'g'risidagi Nizom (keyingi o'rnlarda - Nizom) Buxoro davlat universiteti, Buxoro davlat universiteti Pedagogika instituti, Buxoro davlat universiteti Qorako'l Akademik litseyi Buxoro davlat universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazida (keyingi o'rnlarda - universitet) korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha koordinatorning (keyingi o'rnlarda - koordinator) funksiyalari va vakolatlarini belgilab beradi.

2. Koordinator universitetda korrupsiyaning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi, shuningdek, universitetning Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi (keyingi urinlarda – bo'lim) bilan hamkorlik qiladi. Mazkur bo'lim o'z navbatida universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi uchun javobgar hisoblanadi.

3. Koordinatorning funksiyalari boshqa funksiyalarni bajaruvchi xodimlar, bo'linmalarga yuklatilishi mumkin. Bunda, koordinator funksiyasi korruption xavf-xatar darajasi yuqori bo'lmagan lavozimlarda ishlovchi universitet xodimlari tomonidan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

4. Universitet raxbariyati hamda raxbariyatga kiruvchi bo'linmalarda koordinatorlar faoliyati yo'lga qo'yilmaydi.

5. Koordinator o'ziga yuklatilgan funksiyalar doirasida fakultet rahbarlari hamda bo'lim boshlig'ining buyruqlari va topshiriqlarini bajaradi.

6. Koordinator fakultet rahbarlariga hisobdor. Fakultetda korrupsiyaning oldini olish bo'yicha belgilangan chora- tadbirlarni amalga oshirish bilan bog'liq masalalar bo'yicha olingan ko'rsatmalar va buyruqlar bir-biriga zid bo'lgan hollarda, bo'limning buyruqlari va korsatmalari tegishli rahbarlar buyruqlaridan ustun turadi.

7. Fakultetda korrupsiyaga qarshi kurash koordinatorning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini yaratish va takomillashtirish, fakultetda korruptsiyaviy hatti-harakatlarning profilaktikasini amalga oshirish;

Fakultet professor-o'qituvchilarini korruptsiyaga qarshi kurash masalalari haqida xabardorligini oshirish va maslaxatlar berish, shuningdek bu masalalar bo'yicha talabalar va jamoatchilik bilan muloqot qilish;

Fakultetda korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini samarali faoliyat yuritishini, shu jumladan ISO 37001:2016 xaqaro standarti talablariga muvofiqligini nazorat va monitoring qilish;

korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha huquqni muhofaza qilish idoralari bilan

o'zaro hamkorlik qilish.

8. Fakultetda korrupsiyaga qarshi kurash buyicha koordinator o'ziga yuklatilgan vazifalar bilan birga quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1) Fakultetda korruption hatti-harakatlarni profilaktika qilish, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tizim yaratish va takomillashtirish sohasida:

Fakultetda korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan ichki hujjatlar loyihasini ishlab chiqadi;

Fakultetda antikorruption chora-tadbirlar dasturi(yo'l xaritasi)ni ishlab chiqadi;

Fakultetdagi korruption xavf-xatarlarni baholashni muvofiqlashtiradi, fakultetning idoraviy korruption xavf-xatar xaritasi loyihasini universitetda korruption xavf-xatarlarni baholashni amalga oshirish yo'riqnomaga muvofiq tayyorlaydi hamda fakultet rahbariga, shuningdek bo'limga yuboradi.

Fakultet idoralararo hujjatlarida aniqlangan korruption omillarning oldini olish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi.

2) Fakultet professor-o'qituvchilarini korrupsiyaga qarshi kurash javobgarligi bo'yicha xabardorligini oshirish va maslahatlar berish, shuningdek bu choralar bo'yicha talabalar va jamoatchilik bilan muloqot qilish sohasida:

Universitetdagi barcha xodimlar, abiturientlar, talabalar, o'quvchilar va ularning ota-onalari o'rtaida korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy savodxonligini oshirishga bag'ishlangan konferensiylar, uchrashuvlar, seminarlar, konkurslar tashkil etishga bo'limga yordam beradi;

Bo'lim qarori bilan Fakultet professor-o'qituvchilarining, jismoniy va yuridik shaxslarning korruption harakatlar va xatarlar masalalari buyicha murojaatlarini ko'rib chiqishda qatnashadi;

Fakultet professor-o'qituvchilariga korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha maslahatlar beradi;

Fakultet professor-o'qituvchilarini antikorruption normalarga o'qitish bo'yicha o'quv rejalarini tayyorlashda ishtiroy etadi;

Fakultet professor-o'qituvchilarini hamda korruption xavf-xatarning yuqori darajasi bilan bog'liq lavozimlar uchun korrupsiyaning oldini olish masalalari bo'yicha o'quv materiallarini ishlab chiqishda qatnashadi;

Fakultet professor-o'qituvchilarini va fuqarolar o'rtaida antikorruption xattiharakatlarni targ'ib qilishda ishtiroy etadi;

Rasmiy veb-saytning "Korrupsiyaga qarshi kurash" bo'limida va fakultet ijtimoiy tarmoqlari sahifalarida joylashtirilgan ma'lumotlarning yangilanishini ta'minlaydi;

Fakultetning korrupsiya faktlari to'g'risida xabar berish uchun ishlab chiqilgan maxsus aloqa kanallarini ish natijalarini tashkil qiladi hamda korruption xavf-xatarlar to'g'risidagi tashkiliy materiallarni rahbariyat va xodimlarga yetkazadi, ularning bu boradagi xabardorligini oshiradi.

3) Fakultetda korrupsiyaga qarshi kurash tizimining samarali nazoratini amalga oshirish va monitoring qilish sohasida:

Fakultet professor-o'qituvchilarini korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha

treninglarda ishtirokini va mashg'ulotlarni o'quv rejaga muvofiq o'tkazilishini nazorat qiladi;

Fakultet professor-o'qituvchilarini tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati va tadbirlarga, shuningdek, korruption xavf-xatar vujudga kelishi ehtimolini nazarda tutuvchi hollarda odob-axloq qoidalariga rioya etilishi bo'yicha nazorat tadbirlarini bajarilishi va monitoringi jarayonida bo'lim bilan hamkorlik qiladi;

Bo'lim qarori bilan fakultetda korruption xatti-harakatlar bo'yicha xizmat tekshiruvlarini o'tkazishda qatnashadi;

Fakultetda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilgan ishlari to'g'risida hisobotlarni tayyorlashda bo'lim bilan hamkorlik qiladi, shuningdek, fakultet rahbariyatiga va bo'limga hisobot taqdim etadi;

antikorruption qonunchilik hujjatlarida va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi ichki hujjatlarda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan nazoratni olib boradi.

4) Korruptioni qarshi kurashish bo'yicha huquqni muhofaza qilish idoralari bilan o'zaro hamkorlik yuzasidan korruption jinoyatlarni oldini olish yoki tergov qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishda huquqni muhofaza qilish organlarining vakolatli vazifalari bilan hamkorlik qiladi.

Bo'ysunuvchi bo'linmadagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha koordinator universitet rektori, bo'lim, bo'ysunuvchi fakultet rahbari buyruqlari asosida boshqa vazifalarni ham amalga oshiradi.

9. Fakultetning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha koordinator o'ziga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni amalga oshirishda quidagi huquqlarga ega:

Fakultet professor-o'qituvchilaridan o'z vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha tahliliy ma'lumotlar, xulosalar, birlamchi va boshqa tasdiqlovchi hujjatlar, statistik va boshqa ma'lumotlarni so'rashi, talab qilishi va olishi;

xizmat vazifalarini bajarish doirasida fakultet professor-o'qituvchilarinidan zaruriy yordamni so'rashi va olishi;

Fakultet rahbariga va bo'limga fakultetda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;

xizmat tekshiruvida qatnashish, Fakultet professor-o'qituvchilaridan hujjatlarni talab qilish, yozma tushuntirishlar olish, shuningdek amalga oshirilayotgan tekshiruv doirasida fakultetning binolari, inshootlari va jixozlarini ko'zdan kechirish, tegishli hujjatlarning nusxalarini olish, tegishli foto va video yozuvlar qilish;

Fakultetning odob-axloq Komissiyalari yig'ilishlarida kuzatuvchi sifatida ishtirok etish, odob-axloq Komissiyasi yigilishlarida o'rnatilgan reglament va universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimida talablarga muvofiqligi to'g'risida fikr bildirish;

Fakultetning korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha koordinator universitet rektori, bo'lim, fakultet raxbarining tegishli buyruqlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

10. Koordinator o'zining xizmat vazifalarini bajarishda ochiqlik, umumiyligi natijaga qaratilganlik va javoblarning to'liqligi, taqdim etiladigan tavsiyalarning o'z o'rnida qo'llanilishi tamoyillariga asoslanib fakultetning boshqa tarkibiy bo'linmalari

bilan o‘zaro hamkorlik qiladi.

11. Koordinator o‘z xizmat vazifalarini bajarmaganlik yoki to‘liq darajada bajarmaganlik, universitet Korrupsiyaga qarshi siyosati talablarini, universitet xodimlarining axloq-odob qoidalarini, fakultet rahbarining buyruqlarini, shuningdek noqonuniy xatti-harakatlar yoki harakatsizlik, yuklatilgan vazifalarni bajarishdan bosh tortganlik, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida va (yoki) fakultet uchun salbiy oqibatlarga olib keluvchi aniqlangan huquqbuzarliklarni yashirganligi uchun intizomiy va (yoki) boshqa javobgarlikka tortiladi.